

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBIRIYLAR SULOLASINING MARKAZIY OSIYO UCHUN AHAMIYATI

Saidakmal Abdullayev–

*Toshkent davlat yuridik universiteti
huzuridagi M.Vosiqova nomidagi akademik
lisey o'quvchisi*

Annotasiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va Bobiriylar sulolasining Markaziy Osiyo uchun ahamiyati masalasi shuningdek, mazkur sulolalaning kishilik sivilizatsiyasiga qoldirgan merosining o'ziga xos tomonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Agra, Qobul, «Bobur» - «Sher», «Boburnoma» asari, Panipat, jangi, Sikri jangi, Javaharlal Neru, Mahatma Gandi, «Boburi Anguri Xudo», «Bog'i Bobur», Hind sorig'a, «Bobur izidan», «Muqaddas qadamjolar», Xalqaro Bobur jamg'armasi

Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon 1483-yilning 14-fevralida Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg'ona hukmdori Umarshayx xonadonida tug'ilgan. «Boburning onasi–Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Bobur ota tomondan Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh Mirzo naslidan bo'lsa, ona tomonidan Tug'luq Temurxonning o'g'li Xizr Xo'jaxon naslidan edi uning yettinchi avlodi edi. Otasi tomondan: Amir Temur ko'ragon (1336-1405); Mironshoh Mirzo (1366-1408); Sulton Muhammad Mirzo (1408-1449); Sulton Abu Said ko'ragon (1424-1469); Umarshayx Mirzo ko'ragon (1456-1494); Bobur (1483-1530)”¹.

1494-yilda Bobur 12 yoshida taxtga o'tiradi. Keyinchalik qilingan harbiy yurishlar tufayli uch asrdan ortiq davom etgan 1526-yildan —1858 yillarga qadar davom etgan Boburiylar saltanatiga asos solgan shaxs sifatida tarixga kirgan. 1530-yil 26-dekabr kuni Hindistonning Agra shahrida vafot etdi. Uning qabri keyinchalik o'z vasiyatiga ko'ra Afg'onistonning Qobul shahriga ko'chirilgan.

Uning shaxsiyatiga to'liq to'xtalsak, Zahiriddin Muhammad Bobur — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste'dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda hisoblanadi. Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi — Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarishning dastlabki

¹ <https://mgjxu.uz/oz/menu/zahiriddin-muhammad-babur>

yillarida unga faol ko‘mak bergan. Xatto harbiy yurishlarida ham unga hamrohlik qilganligi xususida manbalarda ma’lumotlar uchraydi.

Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga juda qiziqqan. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» - «Sher» laqabini beriladi. Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur sufiy — Xoja Ahrorga tariqatiga amal qiladi. Keyinchalik, «Boburnoma» asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizliqdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi. Uning otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lganidan keyin, u oilaning katta farzandi bo‘lganligi uchun 1494-yil iyun oyida 12 yoshida valiahd sifatida taxtga o‘tiradi. Biroq mazkur davrda albatta unga oson bo‘lmagan. Chunki mazkur davrda Movarounnahr XV asr oxirida o‘zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo‘lib olgan ko‘pdan-ko‘p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilayotgan edi.

Ona yurtini Shaybonixon bilan bo‘lgan janglardan keyin tark etgan Zahiriddin Muhammad Bobur 1525-yilda Rano Sango bilan ittifoq tuzib, Shimoliy Hindistonni egallash maqsadida Ibrohim Lo‘diyga qarshi jangga kirdi. 1525-yil kech kuzda Bobur Panjobni bo‘ysundirdi. 1526-yilda Panipat qishlog‘i yaqinidagi birinchi jangda Boburshoh qo‘shini Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning ukasi Mahmud Lo‘diy qo‘shini ustidan g‘alaba qozonib, Bengal shohi Nusratshoh bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatdi. “1526-yil apreldagi Panipat jangida Bobur asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning 100 ming kishilik qo‘shinini o‘zining 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi”². 1527-yil martda Bobur Sikri yaqinidagi jangda rajputlar sardori Rano Sango qo‘shinini tor-mor etib, butun Shimoliy Hindiston bo‘ysundirdi.

Zahiriddin Bobur Hindistonda Boburiylar imeriyasiga asos solish bilan birga, o‘z davlat boshqaruv sohasiga ham jiddiy o‘zgartirishlar kiritdi. Jumladan, vaqt birligiga yangilik joriy etdi, arxitektura Hindistonda Movarounnahr me’morlik uslublarini qo‘lladi, milliy artilleriya, harbiy-dengiz flotiga asos solgan shaxs sifatida jahon tarixida qoldi.

Tarixchi olim Eduard Holden Mirzo Boburning “Hindistondagi qudrati uning bosib olgan yerlari bilan emas, u hind xalqining ko‘nglida uyg‘ota olgan hurmat-ehtirom bilan o‘lchanadi” – deb qayd etadi.

Hind xalqining buyuk farzandlari Javaharlal Neru, Mahatma Gandi kabi davlat arboblari va olimlari Zahiriddin Bobur Bobur shaxsiyati hamda Boburiylar

² <https://yuz.uz/uz/news/zahiriddin-muhammad-bobur--buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>

shaxsiyatga kata baho berishib, bu sulolaning nafaqat Hindiston uchun, balki taraqqiy etgan dunyo tarixida ham katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etishadi. "Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida hind xalqining mashhur arbobi Javoharlal Neru shunday yozgan edi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katga siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohaları esa bir-birlariga tutashib ketdi"³.

Bundan tashqari Boburda insoniy xislatlarning yuqoriligi ham e'tirof etiladi. Xususan, jamoat arbobi Javoharlal Neru "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati, ularga mashg'ulligi bilan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta hukmdor topilmaydi"⁴ – deb o'z xotiralarida yozadi.

Bobur faqat shoh sifatida emas ham shoir ham tarixchi sifatida ham sarmahsul ijod qildi. "Boburnoma – Boburning tarixiy asaridir. Asar haqli ravishda "turkiy nasrning eng yaxshi asari" deb nomlangan. Ushbu kitob tarixiy yozuvlarning qisqa ma'lumoti emas. Asarda Boburning faoliyati, uning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harbiy yurishlari, boy sarguzasht hayotining barcha voqealari tasvirlangan. Bugungi kunga qadar "Boburnoma" dunyoning 31 tiliga tarjima qilingan"⁵.

Shuningdek, "Boburnoma" asaridan tashqari Zahiriddin Bobur Bobur tomonidan nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bitilgan. Uning "Mubayyin" ("Bayon etilgan"), "Xatti Boburiy", "Harb ishi", Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga oid ijod namuna hisoblanadi.

Akademik S.Azimjanova va tarix fanlar nomzodi Valievaning fikrlariga ko'ra, manbalarda Bobur tomonidan "1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan «Mubayyin» nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan"⁶ ligi berilgan.

"Bobur Mirzoning bunyodkorlik ishlari ham ma'lum va mashhur. Dunyoning turli burchaklaridan mutaxassislarni chaqirib, Hindistonda 56 ta inshoot barpo etgan. Shundan 33 tasi bevosita xalq ehtiyoji uchun xizmat qiladigan rabot, madrasa, yo'l, ko'priklar kabilardir. Bobur Mirzo Hindistonda yurtida ellik kishi ishlaydigan ulkan kutubxona bunyod qilib, uni nodir kitoblar bilan boyitdi"⁷.

Buyuk Boburiylar sulolasi davri nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki Hindistonni ulkan me'moriy yodgorliklar, noyob adabiy-tadqiqot ishlari bilan boyitgan davr ham hisoblanadi. Hindistonning turli qismlarida bu davrda Buyuk Boburiylar

³ <https://tuit.uz/post/zahiriddin-muhammad-bobur-adolatli-shoh-va-buyuk-shoir>

⁴ <https://jdpu.uz/zahiriddin-muhammad-bobur-hayoti-hikmatlari-fazilati-va-avlodlari-haqida/>

⁵ <https://uzbekistan.travel/uz/o/bobur-hayoti-va%20ijodi-haqida-8-ta-ajoyib-fakt/>

⁶ <https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html>

⁷ <https://oliymahad.uz/42114>

sulolasiga qarashli me'moriy obyektlari – Fotihpur-Sikridagi Shoh saroy majmuasi, Agra, Dehli va Lahor qirg'oqlari saroylari va bog'lari shular jimlasidandir. Bundan tashqari Boburiylar sulolasi sohibqiron Amir Temurning bog'lar barpo etishdagi bunyodkorlik siyosatini davom ettirib, bog'larning eng ko'zga ko'ringan namunalari – Kashmirda 1620-yilda Shalimar va 1642-yilda Lahor bog'lari, 1632-yilda Anantag yaqinidagi Achabal bog'i, Chashma Shahi Bagh, Kashmirda 1633-yilda Nishat Bagh bog'i, Lahor, Dehli, Agra qirlari ichidagi ko'plab bog'lar, xususan Qobulda maqbara va o'nlab bog'lar barpo etishgan.

Bularning barchasini barpo etishda Zahiriddin Bobur Boburning bog'dorchilik sohasida tamal toshini qo'ygan ishlari poydevor vazifasini bajargan. Yuqorida aytilganidek, Bobur doimo bog'dorchilik faoliyatiga alohida mehr bergan. Hindiston hamda Pokiston geografik manbalariga razm solsak, mazkur hududlarda hozirgacha Samarqand nomi bilan mashhur bo'lgan uzumning yangi navlarini o'stirib, iste'mol qilinmoqda. Hududda Zahiriddin Bobur Bobur va Boburiylar sulolasi davrida barpo etilgan bog'lar "Boburi Anguri Xudo" – "Bobur uzum bog'lari" deb nomlanadi.

Bobur Afg'oniston va Hindistonga fotih sifatida kirib borgan bo'lsa-da, shu hududda yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmdor faoliyani amalga oshirdi. Mamlakatning manfaatlari yo'lida odilona va oqilona ish tutdi. Zamondoshlarining e'tirofiga ko'ra, Bobur butun Xuroson va Hindistonda qudratli davlat boshlig'i va sarkarda sifatida katta obro' orttirdi, mintaqadagi siyosiy hayotni tinch-totuvligini ta'minladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik erishganidan keyin Bobur shaxsiyatini tiklashga qaratilgan bir qancha amaliy ishlar qilindi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi"⁸. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog' «Bog'i Bobur» tashkil etilfi. Bobur milliy bog'i majmuasida «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan.

Andijondagi markaziy ko'chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi ko'chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog'iga Bobur nomi berildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta'sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo'ldi.

Tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg'armasi Bobur ijodini o'rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Mazkur jamg'armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o'tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma'lumotlar

⁸ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/sarkarda/zahiriddin-muhammad-bobur-1483-1530/>

to'plab, ularni ilmiy iste'molga kiritdi. Mazkur ma'lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar yozildi. Xususan,

Z.Mashrabov, S.Shokarimovning «Asrlarni bo'ylagan Bobur»;

S.Jalilovning «Boburning Farg'ona davlati», «Bobur va Andijon»;

Qamchibek Kenjaning «Hind sorig'a»;

X.Sultonovning «Boburning tushlari», «Boburiynoma»;

R.Shamsuddinov: «Boburiylar izidan», «Boburiylar sulolasi»;

T. Nizomning «Uch so'z» asarlari chop etildi.

Bundan tashqari 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar jumladan,

F. Rasulovning «Bobur izidan», «Muqaddas qadamjolar»;

T.Ro'zievning «Bobur salomi», «Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya»;

T.Hamidovning «Iftixor» va boshqa hujjatli, videofilmlar tasvirga olindi.

Xalqaro Bobur jamg'armasining "Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O'sh (Qirg'iziston), Toshkent, Namangan (O'zbekiston) shaharlarida bo'limlari tashkil etildi"⁹.

1998 yil Xalqaro Bobur jamg'armasining boburshunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirimqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G'aybulloh as-Salom, Ne'matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin (Afg'oniston), Ma'murjon To'xtasinov, Ravshan Mirtojiev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzaevga munosib xizmatlari uchun taqdim qilindi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasining Markaziy Osiyo uchun o'rni va ahamiyati beqiyos. Chunki, mazkur sulola qoldirgan ulkan ma'naviy meros kishilik jamiyatining gultojlaridan biridir. Bobur shaxsiyati xususida xulosa qilganimizda umri davomida asrlarga tatigulik asarlar bitgan, obodonchilik va bunyodkorlik ishlari, avlodlarga qoldirgan ibrat maktabi uning nomini abadiy qildi deya olamiz. Biz – yosh avlod vakillari Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ulug' bobokalonlarimizning boy ma'naviy merosi va xotirasi zamirida hamisha faxr-iftixor tuyg'usini his qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://mgjxu.uz/oz/menu/zahiriddin-muhammad-babur>
2. <https://yuz.uz/uz/news/zahiriddin-muhammad-bobur--buyuk-davlat-arbobi-va-sarkarda>
3. <https://tuit.uz/post/zahiriddin-muhammad-bobur-adolatli-shoh-va-buyuk-shoir>
4. <https://jdpu.uz/zahiriddin-muhammad-bobur-hayoti-hikmatlari-fazilati-va-avlodlari-haqida/>

⁹ <https://tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur.haqida>

5. <https://uzbekistan.travel/uz/o/bobur-hayoti-va%20ijodi-haqida-8-ta-ajoyib-fakt/>
6. <https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html>
7. <https://oliymahad.uz/42114>
8. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/sarkarda/zahiriddin-muhammad-bobur-1483-1530/>
9. <https://tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur.haqida>

